

AZIM SUYUN SHE’RIYATIDA VATAN VA TABIAT TASVIRI

Safarova Madina Vali qizi

Mustaqil izlanuvchi

E-mail: safarova178@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22643448>

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining o‘ziga xos vakili Azim Suyun ijodida Vatan, ona zamin va tabiat obrazlarining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Shoir poetik olamida tug‘ilib o‘sgan diyor, Nurota tog‘lari, qishloq hayoti, ona, ajdodlar xotirasi va milliy o‘zlik tushunchalarining o‘zaro aloqasi ochib beriladi. Tabiat obrazlarining shoir she’riyatida oddiy peyzaj vazifasini bajarmasdan, inson ruhiyati, Vatanga muhabbat, erkinlik, bardoshlilik va ma’naviy poklik kabi tushunchalarni ifodalovchi poetik vositaga aylanishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, Azim Suyunning barmoq, aruz va sarbast vaznlaridan foydalanish mahorati hamda tuyuq janrida tajnis san’atini qo‘llash xususiyatlari tahlil etiladi. “Nakurt qishlog‘i”, “O‘zbekman”, “Chingiz Axramov” she’rlari va tuyuqlar misolida shoirning poetik tafakkuri, xalqona ruh va milliy o‘zlikni ifodalashdagi badiiy mahorati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Azim Suyun, o‘zbek she’riyati, Vatan, ona zamin, tabiat, Nurota tog‘lari, qishloq, milliy ruh, milliy o‘zlik, peyzaj, poetik obraz, barmoq, aruz, sarbast, tuyuq, tajnis.

Аннотация: В статье анализируются художественные особенности изображения Родины, родной земли и природы в творчестве современного узбекского поэта Азима Суюна. Рассматривается взаимосвязь образов Нураты, родного кишлака, матери, предков и национальной идентичности. Особое внимание уделяется тому, что природные образы в поэзии поэта выполняют не только пейзажную функцию, но и выражают любовь к Родине, свободу, духовную чистоту и внутренний мир человека. Анализируются также особенности использования силлабического, арузного и свободного стихосложения, а также жанра туюк и художественного приёма таджнис.

Ключевые слова: Азим Суюн, узбекская поэзия, Родина, родная земля, природа, Нурата, национальный дух, национальная идентичность, пейзаж, поэтический образ, туюк, таджнис.

Abstract: This article examines the artistic representation of Homeland, native land and nature in the poetry of Azim Suyun, a distinctive representative of modern Uzbek poetry. The study focuses on the relationship between the images of the Nurata Mountains, the native village, mother, ancestors and national identity. It demonstrates that natural images in the poet’s works function not merely as landscape descriptions, but as poetic means of expressing love for the Homeland, freedom, spiritual purity and the inner world of a person. The article also examines the poet’s use of syllabic, aruz and free verse, as well as the tuyuk genre and tajnis literary device.

Keywords: Azim Suyun, Uzbek poetry, Homeland, native land, nature, Nurata Mountains, national spirit, national identity, landscape, poetic image, tuyuk, tajnis.

KIRISH.

O‘zbek she’riyatida Vatan va tabiat mavzusi qadimiy hamda uzluksiz an’analarga ega. Tabiat tasviri ko‘pincha insonning ichki kechinmalari, milliy ruhiyati va hayot haqidagi falsafiy qarashlarini ifodalashga xizmat qiladi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida ham mazkur

an’ana yangi poetik izlanishlar bilan davom ettirildi. Ana shunday ijodkorlardan biri Azim Suyundir.

Azim Suyun she’riyatining muhim jihatlaridan biri shundaki, unda Vatan tushunchasi abstrakt va umumiy mazmunda emas, balki shoirning shaxsiy hayot tajribasi, tug’ilib o’sgan qishlog’i, Nurota tog’lari, oilasi va bolalik xotiralari bilan chambarchas bog’liq holda tasvirlanadi. Shoir uchun Vatan – geografik hududdan ko’ra kengroq tushuncha bo’lib, u insonning ruhiy ildizi, xotirasi, milliy o’zligi va ma’naviy dunyosini belgilovchi muqaddas makondir.

Ijodkor shaxsning shakllanishida bolalik muhiti muhim o’rin tutadi. J. Jumaboyeva ijodkorning she’riyatga bo’lgan muhabbati va estetik qarashlarining shakllanishida bolalik va yoshlik kechgan muhitning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi [1, 19]. Bu fikr Azim Suyun ijodiga ham to’la taalluqlidir. Shoirning o’zi bolalik va yoshlik yillarining katta qismini Nurota tizma tog’larini kezib o’tkazganini, uning tabiatini, hayvonot va o’simlik dunyosini yaqindan kuzatganini qayd etadi [2, 7].

Shu jihatdan shoirning tabiatga bo’lgan munosabati oddiy kuzatuvchilikdan ancha yuksak turadi. U tabiatni his qiladi, uning har bir detalini badiiy obrazga aylantiradi va tabiat manzaralari orqali inson qalbidagi tuyg’ularni ifodalaydi.

Azim Suyun she’riyatida tug’ilgan diyor va bolalik muhiti

Azim Suyun ijodida tug’ilgan maskan obrazi markaziy o’rinlardan birini egallaydi. Shoir uchun bolalik o’tgan qishloq, ota-bobolar yashagan uy, tog’lar va tabiat manzaralari uning ijodiy dunyosining ma’naviy ildizidir.

“Nakurt qishlog’i” she’rida shoir:
*Lojuvard ufqda mening o’yim bor,
Bir o’yki, o’ylarim oydin, sarasi.
Shu ufq tagida mening uyim bor,
Nurota tog’larin u yer orasi* [2, 58]

deya tug’ilgan makonini tasvirlaydi.

Bu misralarda “ufq”, “uy” va “Nurota tog’lari” obrazlari bir-biri bilan chambarchas bog’langan. “Uy” oddiy yashash joyi emas, balki lirik qahramonning ruhiy olamini tashkil etuvchi muqaddas makondir. Ufq esa makonning kengligi va cheksizligini bildiradi. Shu bilan birga, shoirning o’yi aynan shu ufq ostidagi uy bilan bog’langan. Demak, katta olam va insonning shaxsiy dunyosi “uy” obrazi orqali birlashadi.

Shoirning qishloq haqidagi tasvirlarida ham samimiyat va milliy ruh kuchli. Uning:

*Assalom qishlog’im – jombaxsh oshiyon,
Assalom hilvatgoh – tog’lar orasi.
Tosh devor, loy suvoq uyim assalom,
Assalom bobomning aziz maskani.
(Bunchalar go’zalsan, ey yorug’ olam)
Assalom muborak mening vatanim* [2, 59]

misralarida qishloq, uy, bobolar maskani va Vatan tushunchalari bir butunlikni tashkil etadi.

Ayniqsa, “tosh devor”, “loy suvoq uy” kabi konkret detallar Vatan obrazini hayotiyalashtiradi. Shoir Vatan haqida balandparvoz va mavhum tasavvurlardan ko’ra inson hayotiga yaqin bo’lgan makonlar orqali fikr yuritadi. Qishloq – uning uchun nafaqat tug’ilgan joy, balki oilaviy xotira, ajdodlar merosi va milliy hayotning timsolidir.

Azim Suyun poetikasida Nurota tog’lari alohida o’rin tutadi. Bu tog’lar shoir hayotining bir qismi bo’lish bilan birga, uning ijodiy tafakkurida muhim poetik obrazga aylangan.

Shoir tarjimai holida bolalik, o’smirlik va yoshlik yillarining ko’p qismi Nurota tizma tog’larini kezish bilan o’tganini ta’kidlaydi. U tog’larda turli voqealarni boshdan kechirganini, tabiat va hayvonot dunyosini yaqindan kuzatganini qayd etadi [2, 7].

Bu hayotiy tajriba shoirning tabiatni tasvirlash mahoratiga katta ta’sir ko’rsatgan. Uning she’rlarida tog’ oddiy geografik obyekt emas. Tog’ – Vatan, bolalik, xotira, bardoshlilik va yuksaklik ramzi.

Masalan:

*Olmos qoyalarda olmos nur o’ynar,
Cho’qillar uzra, huv, jayron bolasi.
Buloqlar boshida kakliklar kuylar,
Sozlarin bastalar tog’ shalolasi.*

misralarida tabiatning rang-barangligi va jonliligi tasvirlangan.

Bu yerda “olmos qoya”, “nur”, “jayron bolasi”, “buloq”, “kaklik”, “shalola” kabi obrazlar yagona poetik manzarani yaratadi. Ayniqsa, “kuylar”, “sozlarin bastalar” kabi ifodalar tabiatni jonlantirib, uni musiqa ijro etayotgan tirik mavjudotlar majmuasiga aylantiradi.

Shunday qilib, shoir tabiatni faqat ko’rmaydi, balki uni eshitadi va his qiladi. Buloq, qush, shalola kabi unsurlar birgalikda tabiatning o’ziga xos “musiqasini” yaratadi.

Azim Suyun she’riyatida tabiat obrazlari inson ruhiyati bilan uzviy bog’langan. Tog’, daryo, buloq, dasht, shamol, osmon va ufq kabi obrazlar muayyan ramziy ma’nolarni ifodalash imkoniga ega.

Tog’ – bardoshlilik va ulug’vorlik timsoli. Uning mustahkamligi inson xarakteridagi sobitlik bilan uyg’unlashadi. Daryo esa hayotning uzluksiz oqimi, harakat va davomiylikni bildiradi. Buloq – poklik va hayot manbai. Dasht – kenglik, erkinlik va cheksizlik ramzi. Ufq esa kelajak va imkoniyatlar kengligini ifodalaydi.

Bu obrazlar shoirning tabiatga falsafiy munosabatini ko’rsatadi.

Masalan, “O’zbekman” she’rida:

*Ekinim javdari suli-yu tariq,
Tog’u dashtda kezindim – ovchilik – yorliq,
Ena daryolarim tutdi mo’l baliq,
Qo’nalg’am oldidan oqizdim ariq,
Hunarlar sirini totgan o’zbekman.*

deya milliy o’zlik tabiat va xalq hayoti bilan bog’lanadi [2, 59].

Bu misralarda o’zbeklik abstrakt tushuncha sifatida emas, balki dehqonchilik, ovchilik, daryo, ariq va hunar bilan bog’liq real hayot tajribasi orqali ifodalangan. Demak, milliy o’zlik insonning tabiat va mehnat bilan munosabatida namoyon bo’ladi.

Azim Suyun ijodida ona obrazi ham Vatan tushunchasi bilan uzviy bog’liq. Shoir onaga murojaat orqali insonning tug’ilgan joyi, xalqi va ona yurtiga sadoqatini ifodalaydi:

*O, ona, sen meni choral betinim,
Qayon eltsa ham bu sertashvish zamon.
Tug’ilgan joyiga sodiq bo’lsa kim,
Ona yurt, xalqiga sodiq har qachon [2, 59].*

Bu misralarda ona va ona yurt tushunchalari bir-birini to’ldiradi. Ona insonning hayotdagi ilk mehr manbai bo’lsa, ona yurt uning milliy va ma’naviy ildizidir.

Shoir uchun tug’ilgan joyga sadoqat insonning ma’naviy qadri bilan bog’liq. Shuning uchun Vatanga muhabbat balandparvoz shior sifatida emas, balki insonning kundalik hayotida namoyon bo’ladigan sadoqat sifatida talqin qilinadi.

Azim Suyun ijodining yana bir muhim xususiyati uning turli vazn va shakllarda ijod qilganidir. Shoir barmoq vaznining xalqona va ravon imkoniyatlaridan foydalanish bilan birga, aruz va sarbast vaznlarida ham samarali ijod qilgan.

Barmoq vazni uning xalqona ruhdagi she’rlariga ravonlik va musiqiylik bag’ishlaydi. Bunday she’rlarda hayotiy obrazlar, xalqona iboralar va samimiy tuyg’ular ustuvor.

Sarbast esa shoirga fikr va kechinmalarni erkin ifodalash imkonini beradi. “Chingiz Axramov” she’rida:

*Toshkentda shom edi. Havo ochiq edi.
Biz to’qqizinchi qavatdan olis-olislarga –
asta-asta qorong’ilik bosib kelayotgan
Chimyon tog’lariga qarab turar edik [2, 66]*

kabi satrlar erkin vaznning poetik imkoniyatlarini ko’rsatadi.

Satrlarning turlicha uzunligi, pauzalar va sintaktik bo’linishlar lirik qahramonning fikrlash jarayonini tabiiy tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Bu yerda shakl mazmunni to’ldiradi: erkin vazn orqali ichki kechinmaning erkin oqimi beriladi.

Azim Suyun ijodida mumtoz janrlarga, xususan, tuyuqqa murojaat ham muhim o’rin tutadi. Tuyuq qisqa hajmli bo’lsa-da, unda katta mazmunni mujassamlashtirish, so’zning ko’p ma’noliligidan foydalanish va tajnis san’atini qo’llash imkoniyati mavjud.

Shoirning:

*Ko’zlarimga boqsang edi bir sari,
Ko’rging edi: qanday u sari-sari.
Ne jafolar qilding, nelar qilmading
Va lekin topmadim hech sendan sari [2, 20]*

tuyug’ida “sari” so’zining shakldosh ma’nolari asosida badiiy o’yin yaratilgan.

Bu yerda bir xil shakldagi so’zning turli ma’nolarda ishlatilishi oshiqning sog’inchi, iztirobi va umidsizligini ixcham tarzda ifodalash imkonini bergan.

Yana bir tuyug’ida “kunda” so’zining turli ma’nolari qo’llanadi:

*Toblanib o’tirar eding sen kunda,
Pinhona termular edim men kunda.
Bir kun ko’rib qolib, jilmayib, deding:
“Bolta tushguncha dam olibdi kunda” [2, 20].*

Bu tuyuqda “kunda” so’zi turli semantik ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Natijada lirik vaziyatda yumor va nozik kinoya paydo bo’ladi.

“Surma” so’zi ishtirokidagi tuyuqda ham shoir so’zning shakliy va ma’naviy imkoniyatlaridan foydalanadi:

*Qo’limni uzatdi, qaytarma-surma.
Bir nazar qil, axir, unda bor surma.
Senga olislardan keltirdim atay,
Yuragim kuyugi – ko’zingga sur, ma! [2, 20].*

Bu misralarda “surma” ko’zga surtiladigan vosita sifatida ham, fe’lga yaqin shaklda ham ishlatiladi. Oxirgi misradagi “sur, ma” bo’linishi esa so’z o’yininig badiiy imkoniyatini yanada kuchaytiradi.

Demak, Azim Suyun tuyuqlarida mumtoz tajnis an’ansi zamonaviy lirik kechinmalar bilan uyg’unlashadi.

Azim Suyun she’riyatining muhim jihatlaridan yana biri milliy ruhning tabiiy va samimiy ifodasidir. Shoir milliylikni faqat tarixiy mavzular yoki milliy ramzlar orqali emas, balki xalqning kundalik hayoti, mehnati, tabiati, hunari va oilaviy qadriyatlarini orqali ko’rsatadi.

“O’zbekman” she’rida dehqonchilik, ovchilik, daryo, ariq va hunar tushunchalari milliy o’zlikni belgilovchi unsurlar sifatida namoyon bo’ladi [2, 59].

Bu jihatdan shoirning milliylik haqidagi qarashlari hayotiy va real xarakterga ega. Milliy ruh – bu xalqning yashash tarzi, tabiat bilan munosabati, mehnatga qarashi, ajdodlar xotirasi va Vatanga bo’lgan sadoqatidir.

Shu bilan birga, shoirning milliy ruhni tasvirlashi uni tor doiraga qamab qo’ymaydi. Ona, Vatan, tabiat, insoniylik va sadoqat kabi tushunchalar milliy mazmun orqali umuminsoniy qadriyat darajasiga ko’tariladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Azim Suyun she’riyati o’zbek adabiyotida o’ziga xos poetik hodisa sifatida namoyon bo’ladi. Uning ijodida Vatan, ona zamin, tabiat, bolalik, oila, ajdodlar xotirasi va milliy o’zlik tushunchalari yagona badiiy tizimni tashkil etadi.

Shoir uchun Vatan oddiy geografik hudud emas, balki insonning ma’naviy ildizi va ruhiy tayanchidir. Shu sababli tug’ilgan qishloq, ota-bobolar uyi, Nurota tog’lari, buloqlar, daryolar va keng dashtlar Vatan tushunchasining badiiy tarkibiy qismlariga aylanadi.

Azim Suyunning bolalik va yoshlik yillarini Nurota tog’lari bag’rida o’tkazgani uning tabiatni badiiy idrok etishiga kuchli ta’sir ko’rsatgan. Tabiat uning she’rlarida oddiy peyzaj emas, balki inson ruhiyatini ifodalovchi poetik vosita vazifasini bajaradi. Tog’ bardoshlilik va ulug’vorlikni, daryo davomiyligini, buloq poklikni, dasht esa erkinlik va kenglikni ifodalaydi.

Shoirning “Nakurt qishlog’i” va “O’zbekman” kabi she’rlarida tug’ilgan maskan, milliy hayot va Vatanga sadoqat g’oyalari samimiy ifodalangan. “Chingiz Axramov” she’rida esa sarbast shakli orqali zamonaviy poetik tafakkur va ichki kechinmalarning erkin oqimi aks etadi.

Tuyuq janrida esa Azim Suyun mumtoz adabiyot an’analarini davom ettirib, tajnis san’atidan mahorat bilan foydalanadi. “Sari”, “kunda”, “surma” kabi shakldosh so’zlarning turli ma’nolarda qo’llanishi shoirning so’z imkoniyatlarini chuqur anglaganidan dalolat beradi.

Umuman, Azim Suyun she’riyatining badiiy-estetik qimmatini milliy ruh, xalqona tafakkur, tabiatga muhabbat, insoniylik va falsafiy mushohadaning uyg’unlashuvida namoyon bo’ladi. Uning she’rlari o’quvchini Vatanni sevishtga, tabiatni qadrlashga, milliy ildizlarini anglashga va insoniy qadriyatlar haqida chuqurroq o’ylashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Жумабоева Ж. Омон Матжон. – Тошкент: Фан, 1993. – 19 б.
2. Суюн Азим. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1996. – 7, 20, 58–59, 66 б.

**“Pedagogik ta’lim va tarbiya
transformatsiyasida fundamental,
amaliy va innovatsion
tadqiqotlarning konseptual
asoslari” mavzusidagi Xalqaro
ilmiy-amaliy anjuman materilalari
to‘plami**



23.06.2026

**Proceedings of the International
Scientific and Practical
Conference on “Conceptual
Foundations of Fundamental,
Applied, and Innovative
Research in the Transformation
of Pedagogical Education and
Upbringing”**

3. Nasrullayev E. The Enlightenment Of Navoi: A New Era And A New Interpretation //International Journal Of Literature And Languages. – 2023. – T. 3. – №. 01. – С. 10-17.

4. Mardanov R. G. Shoir lirik she'riyatida xabar mavzusidagi g ‘azal va baytlar mazmuni haqida //Экономика и социум. – 2024. – №. 12-1 (127). – С. 225-229.